Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensiyalari” mavzusidagi respublika il...

9. O’zbekiston Respublikasining “O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to’g’risida"gi 525-II- sonli Qonuni, 29.08. 2003 y.
10. O’zbekiston Respublikasining “O’zbekiston Respublikasining Markaziy bank to’g’risida”gi Qonuni. 21.12.1995 y. (2018 yil 3 yanvardagi O’RQ-456- sonli Qonuni bilan kiritilgan)
11. O’zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to’g’risida”gi Qonuni.25.05.1996 y.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ QONUNCHILIGIDAGI O‘ZGARTISHLAR HAQIDA

Turaboev Kambarali Kodirovich
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Andijon fakulteti“Mutaxassislik fanlari”
kafedrasi assistenti

Soliq va byudjet siyosatining 2024 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim Qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-891-sonli Qonuni, O‘RQ-886-sonli Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 29 dekabrdagi PQ-422-sonli qarori qabul qilindi.

Ushbu karorga asosan soliq qonunchiligiga qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Soliq kodeksining 17- moddasida ko‘rsatilgan yig‘imlarning turlariga yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan avtotransporti vositalari va tirkamalarning avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanish huquqi uchun yig‘im turi kiritildi.

Shu munosabat bilan Soliq kodeksining 455,456,457,458 va 460-moddalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritildi.

Ushbu yigim Transport vazirligi hududiy boshqarmalari tomonidan undiriladi.

2024 yil uchun yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotransport vositalari va tirkamalarining avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanishi huquqi uchun yig‘imlar stavkalari quyidagicha belgilandi:

yuk ko‘tarish quvvati **10** tonnadan **25** tonnagacha bo‘lgan **N2, N3** toifasidagi avtotransport vositalari va 0**4** toifasidagi tirkamalar uchun yig‘im bazaviy hisoblash miqdorining **5** barobari miqdorida ya’ni **1 700 000** so‘m qilib belgilandi.

- yuk ko‘tarish quvvati **25** tonnadan **35** tonnagacha bo‘lgan **N2, N3** toifasidagi avtotransport vositalari va 0**4** toifasidagi tirkamalar uchun yig‘im bazaviy hisoblash miqdorining 8 barobari miqdorida ya’ni **2 720 000** so‘m qilib belgilandi.

yuk ko‘tarish quvvati **35** tonna va undan yuqori bo‘lgan **N2, N3** toifasidagi avtotransport vositalari va **04** toifasidagi tirkamalar uchun yig‘imbazaviy hisoblash miqdorining **10** barobari miqdorida ya’ni **3 400 000** so‘m qilib belgilandi.

Published: 17.05.2024
Cite this article: Turaboev Kambarali Kodirovich (2024). O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligidagi o‘zgartishlar haqida. Emro Science and Education, 1(3). https://journal.emro.uz/public/maqola/81
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Soliq kodeksining soliq to‘lovchilarning majburiyatlari to‘g‘risidagi 22-moddasi: soliq hisobotlarining va soliqlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlarni **uch** yil mobaynida but saqlanishini belgilandi. Ilgari mazkur muddat **5** yil edi.

Soliq kodeksining 88-moddasidagi: Soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddatlari soliq davri tugaganidan keyin besh yildan uch yilga qisqartirildi.

Soliq Kodeksining 217-Moddasidagi: javobgarlikka tortish muddatining o‘tishi agar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan kundan e’tiboran yoki mazkur huquqbuzarlik sodir etilgan soliq davri tugaganidan keyingi kundan e’tiboran va javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan paytga qadar uch yil (o‘tish muddati) o‘tgan bo‘lsa, shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emasligi belgilandi.

Soliq kodeksining 100-moddasidagi: Soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish shartlariga kameral soliq tekshiruv natijalari bo‘yicha qo‘shimcha hisoblangan soliqlar summalarini soliq organi tomonidan qabul qilingan qaror kuchga kirgan kundan e’tiboran olti oy mobaynida teng ulushlarda bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berildi.

Soliq kodeksining 138-moddasi quyidagi tahrirda ikkinchi qism bilan to‘ldirildi: Kameral soliq tekshiruvida quyidagi soliq nazorati harakatlarini o‘tkazish ta’qiqlanadi, bundan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash (qaytarish) maqsadida o‘tkaziladigan kameral soliq tekshiruvi mustasno:

1) soliq to‘lovchining hududiga kirish;
2) soliq to‘lovchining hududini va binolarini ko‘zdan kechirish;
3) soliq to‘lovchidan hujjatlarni talab qilib olish va uni chaqirtirish;
4) soliq to‘lovchining hujjatlari va buyumlarini olib qo‘yish.

Soliq kodeksining 237-moddasidagi: qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari safiga O‘zbekiston Respublikasi realizatsiya qilish joyi deb e’tirof etilgan taqdirda chet davlatlarning qonunchiligiga muvofiq tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar ham qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi sifatida qo‘shildi

Mahalliy yakka tartibdagi tadbirkorlar xizmat ko‘rsatganda QQS to‘lamoqda, lekin xuddi shu xizmatlarni chet ellik tadbirkorlar (jismoniy shaxs) ko‘rsatganda QQSga tortilmasdan qolmoqda. Ushbu tartibni joriy etilishi xorijiy va mahalliy yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun bir xil sharoit yaratish imkonini beradi.

QQS: Soliq kodeksining **243-moddasi** qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashdan ozod qilinadigan tovar aylanmalaridan **11, 12, 13**-bandlari, ya’ni **tibbiy xizmatlar**, **veterinariya xizmatlari** va **dori vositalarini** sotish bo‘yicha aylanmalar chiqarib tashlanmoqda.

Bunda “Ijtimoiy reestr”ga kiritilgan fuqarolarga QQS summasi (12 foiz) “keshbek” sifatida qaytarish mexanizmi yaratiladi.

2024 yil 1 apreldan boshlab: Tarkibida shakar yoki boshqa shirinlashtiruvchi va (yoki) xushbo‘ylashtiruvchi qo‘shimchalari bo‘lgan mineral va gazlangan ichimliklarga 1 litr uchun **500** so‘m, shuningdek energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklarga 1 litr uchun **2 000** so‘m miqdorida aksiz solig‘i joriy etilmoqda.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tarkibida gazlangan shakar va boshqa turdagi shirinlanti-ruvchi moddalar qo‘shilgan alkogolsiz ichimliklar mavjud ichimliklarni ko‘p iste’mol qilish ortiqcha vazn paydo bo‘lishi, qandli diabet, karies kabi kasalliklarni ko‘payishiga sabab bo‘lishini inobatga olib ushbu ichimliklar uchun qo‘shimcha soliq kiritishni tavsiya etgan.

Foyda solig‘i: Soliq kodeksining foyda solig‘ini to‘lash to‘g‘risdagi 340-moddasida foyda solig‘i bo‘yicha har oyning 15 sanasidan kechiktirmay to‘lanadigan bo‘nak to‘lovlarini to‘lashi lozim bo‘lgan tadbirkorlik sub’ektlari daromadining chegaraviy miqdori 5 milliard so‘mdan **10** milliard so‘mga oshirilishi belgilandi.

AOS-buyicha: Soliq kodeksining 467-moddasidagi aylanmadan olinadigan soliqning qat’iy belgilangan summada to‘lovchi soliq to‘lovchilar uchun soliq belgilangan stavkalari jami daromadlari besh yuz million so‘mdan oshmagan soliq to‘lovchilar uchun soliq stavkasi 20 mln. so‘mdan **25 mln. so‘mga** o‘zgartirildi, jami daromadlari besh yuz million so‘mdan yuqori bo‘lgan soliq to‘lovchilar uchun soliq stavkasi 30 mln. so‘mdan **34 mln. so‘mga** o‘zgartirildi.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar: O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida yoki tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida yuz million so‘mdan oshgan kundan e’tiboran Soliq kodeksi maqsadida yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda soliqqa tortiladi. Bunda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar ijtimoiy soliqni Soliq kodeksida belgilangan tartibda to‘laydi.

Mazkur o‘zgarish yakka tartibdagi tadbirkor va o‘z-o‘zini band qilganshaxslar uchun soliq solishda teng sharoitlar yaratish maqsadida kiritildi.

Soliq Kodeksining 378-Moddasi: Soliq kodeksining jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari to‘g‘risidagi 378 moddasi 16-bandi ikkinchi xatboshi o‘zining, shuningdek yigirma olti yoshga to‘lmagan farzandlarining yoki erining (xotinining) ta’lim olishi uchun to‘lov degan qismi o‘zining, farzandlarining va shuningdek yigirma olti yoshga to‘lmagan erining (xotinining) ta’lim olishi uchun to‘lov bilan almashtirildi.

Ya’ni farzandlarining yigirma olti yoshgacha bo‘lgan chegara olib tashlandi.

JShODS: Soliq kodeksining **378-moddasi** quyidagi **22** va **23**- bandlar bilan to‘ldirildi:

22) aksiyalar ommaviy joylashtirilganda korxonalar xodimlari tomonidan o‘z xodimlarining aksiyalarga egalik qilish rejasi doirasida aksiyalarni sotib olishga yo‘naltiradigan oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlaridan oshmaydigan mablag‘lari;

23) soliq to‘lovchilarning ish haqi va boshqa daromadlarining mahalliy fond bozorida emissiya qilingan qimmatli qog‘ozlarni sotib olish uchun shaxsiy investitsiya hisobvarag‘iga yo‘naltiriladigan qismi, quyidagi shartlarda:

- soliq davri davomida jami mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining yuz baravarigacha bo‘lgan miqdorda;

- to‘lovlar o‘sib bormaydigan tartibda to‘langanda va bir yo‘la to‘lanadigan to‘lovlar shartnoma davri boshlanishi sanasidan o‘n ikki oy ichida qaytarib olmaslik sharti bilan.

Mol-mulk solig‘i: Soliq kodeksining 411-moddasining soliq solish ob’ekti hisoblanmaydigan ko‘chmas mulk ob’ektlari ro‘yxatiga ko‘p kvartirali uylarda joylashgan ko‘p kvartirali uy mulkdorlarining umumiy mol-mulki qo‘shildi.

Soliq kodeksining 412-moddasi birinchi qismi 1-bandi yashash uchun mo‘ljalanmagan ko‘chmas mulkning mol-mulk solig‘ining soliq solish bazasi 1 kv. metr uchun belgilangan mutlaq miqdorlar eng kam qiymati quyidagi miqdorlarda belgilandi:

- Toshkent shahrida 3 million so‘m belgilandi, 2023 yilda 2,5 mln. so‘m edi.
- Nukus shahrida va viloyat markazlarida - 2 million, 2023 yilda 1,5 mln. so‘m edi,
- Boshqa shaharlarda va qishloq joylarda 1,2 millon so‘m, 2023 yilda 1,5 mln. so‘m edi.

Ya’ni, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk bo‘yicha 1 kv.metri soliqqa tortish bazasi yuqoridagi qiymatdan past bo‘lishi mumkin emas.

Yer solig‘i: Soliq kodeksining 429-moddasidagi yuridik shaxslardan olinaligan yer solig‘i stavkalari 12 foizga indeksatsiya qilindi. Mazkur o‘zgarish mahalliy byudjetlar daromad bazasini oshirish va byudjetning umumiy daromadlarida yer solig‘i ulushini saqlab qolish maqsadida belgilandi.

Soliq kodeksining 437-moddasining birinchi qismi jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari yuridik shaxslar yer solig‘i stavkalari kabi 12 foizga indeksatsiya qilindi.

SMS-xabarnoma: Solik kodeksining 439-moddasi ikkinchi qismi jismoniy shaxslar yer solig‘ini summasi va to‘lash muddatlari haqida, 447-moddasi to‘rtinchi qismidagi tadbirkorlik maqsadida foydalanish uchun mo‘ljallangan ko‘chmas mullka ega bo‘lgan jismoniy shaxslarga, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan dehqon xo‘jaliklariga suv solig‘ini va ularni to‘lash muddatlari to‘g‘risidagi xabarnomani topshirish tartibiga jismoniy shaxslarga imzo qo‘ydirib yoki to‘lov xabarnomasi olinganligi faktini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda topshirishi bilan birgalikda agar mavjud bo‘lsa soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga elektron shaklda, soliq to‘lovchi nomidagi uyali telefon raqamiga va soliq organlarining maxsus mobil ilovasiga SMS-xabarnoma shaklida yuborilishi tartibi ham qo‘shildi. Endilikda soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga elektron shaklda, soliq to‘lovchi nomidagi uyali telefon raqamiga va soliq organlarining maxsus mobil ilovasiga SMS-xabarnoma shaklida yuborilsa ham to‘lov xabarnoma yuborilgan hisoblanadi.

Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq: Soliq kodeksining 452-moddasidagi yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari inflyatsiya darajasiga mos ravishda o‘rtacha 12 foizga indeksatsiya qilinmoqda.

Bunda sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshning 1 tonnasi uchun belgilangan soliq stavkasi 22500 so‘mdan, 6000 so‘m qilib belgilandi. Ya’ni soliq stavkasi 3,75 barobarga pasaytirildi. Mazkur moddadagi sement ishlab chiqarish uchun faqat ko‘mirdan foydalanuvchi zavodlar uchun soliq stavkasi 50 foizga kamaytiriladi degan qismi chiqarib tashlandi.

Sement ishlab chiqarish uchun ohaktoshga soliq stavkasini 4 baravarga kamaytirish ushbu mahsulotlarning mahalliy ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi raqobatbardoshligini oshiradi.

“Navoiy kon metallurgiya kombinati” AJ va “Olmaldiq koln mektallurgiya kombinati” AJ uchun oltin bo‘yicha 10 foiz va palladiy kumush, mis bo‘yicha 15 foiz qilib belgilandi.

“Navoiy uran” DK uchun uran bo‘yicha 16 foiz, oltindan yasalgan zargarlik buyumlarini chakana savdoda sotganligi uchun yig‘im 1 grammiga 1000 so‘m miqdorida tasdiqlandi.

Shuningdek

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 apreldagi 320-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizomda belgilangan Soliq xizmati organlari xodimlari ish haqi fondining 25 foizi miqdorida belgilangan ustama miqdori 15 foizga kamaytirish to‘g‘risida o‘zgartirish kiritildi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan byudjet defitsitini qisqartirish maqsadida kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi “Byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 414-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritilib, qo‘shimcha daromad olayotgan byudjet tashkilotlari 2000 yil 1 yanvardan boshlab 2027 yil 1 yanvargacha Davlat byudjetiga undiriladigan soliqlar, Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar va davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalardan ozod qilinishi belgilandi. Mazkur imtiyoz 2024 yilning 1 yanvariga qadar qo‘llanilishi ko‘zda tutilgan edi. Endilikda imtiyoz 2027 yil 1 yanvarga qadar uzaytirildi.

Xulosa sifatida aytish mumkin-ki, ushbu yildagi soliq siyosatidagi o‘zgarishlar mamlakatimizda soliq konunchiligini takomillashtirish. xalkaro talablarga javob beradigan shuningdek kichik biznes sub’ektlari faoliyatlarida imkoniyat va tegishli yengilliklar berish xamda faoliyatlarini rivoshlantirish uchun shart sharoitlar yaratish maqsadida joriy qilindi. Soliq siyosati orqali davlatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, tadbirkorlik sub’ektlariga faoliyatlarida ko‘proq mablaglar qoldirish, qo‘shimcha ish joylarini tashkil qilish, aholi bandligini ta’minlash masalalariga e’tibor qaratilgan.

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINING TAHLILI

Qurbonov Jasurbek Pozilovich,
i.f.f.d., dotsent,
Muhiddinov Nazirjon
TDIU Andijon fakulteti “Bank ishi va audit”
2-kurs talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlat byudjeti nimadan iboratligi, u nimadan iboratligi, qanday taqdim etilishi va shunga a’xshash masalalarning yechimlari haqida sa’z boradi.*